

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2022-yil yanvar-fevral oyi)

1. Sanoat mahsuloti

2022-yil yanvar-fevral oylarida respublika korxonalarini tomonidan **66,7** trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **107,4** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi **79,0** foizni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati **11,3** foizni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **9,1** foizni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish **0,6** foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarishning o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,8 %** ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarida ishlab chiqarish **15,8 %** ga, o'sishi bo'ldi.

Shu bilan birga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida **1,3 %** ga o'sish hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarida **0,1 %** ga pasayish kuzatilmogda.

Ishlab chiqaradigan sanoat hajmining o'zgarishiga avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish korxonalarida (2021-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **193,1 %**), shuningdek, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish korxonalarida (**191,4 %**), boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish korxonalarida (**126,3 %**) hamda rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish korxonalarida (**121,1 %**) ishlab chiqarish hajmining o'sishi sabab bo'ldi.

Shu bilan birga ishlab chiqaradigan sanoatda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish (2021-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **64,9 %**), koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida (**59,7 %**), elektr uskunalar ishlab chiqarish korxonalarida (**82,3 %**) hamda kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida (**95,8 %**) ishlab chiqarish hajmining pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida metall rudalarini qazib olish korxonalarida (2021-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **119,7 %**) ishlab chiqarish hajmining o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga xom neft va tabiiy gaz qazib olish korxonalarida (2021-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **95,2 %**) ishlab chiqarish hajmida pasayish kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish o'sish sur'ati **127,1** foizni tashkil etdi, shu bilan birga ularning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmidagi ulushi **30,0** foizga yetdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **35,8** foizni, nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi esa **64,2** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 2021 yilning mos davriga nisbatan **114,2** foizni, nooziq-ovqat tovarlari o'sish sur'ati esa **135,6** foizni tashkil etdi.

2. Inflyatsiya darajasi

2022-yilning yanvar-fevral oylarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi **1,4 %** ni tashkil etdi.

2022-yil boshidan narxlar oshishi bo'yicha yetakchilik oziq-ovqat mahsulotlariga tegishli bo'lib, ularning narxlari o'rtacha **1,9 %** ga qimmatlashdi. Nooziq-ovqat mahsulotlari narxlari ushbu davrda **1,0 %** ga, xizmatlar narxlari **1,1 %** ga oshdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining oshishi hisobiga yil boshidan yig'ma INI **0,79** foiz darajasida (keyingi o'rinlarda f.d. deb yuritiladi), nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari hisobiga **0,33 f.d.** yuqoriladi. Xizmatlar tariflarining oshishi yig'ma ko'rsatkichga qo'shimcha **0,26 f.d.** ta'sir ko'rsatdi.

Joriy yilning dastlabki ikki oyidagi yig'ma INI umumiy o'sish sur'atida oziq-ovqat inflyatsiyasi ta'sirining hissasi umumiy ta'sir darajasining 57,0 % ini tashkil etdi. Ushbu davrda nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari oshishining ta'siri ulushi iste'mol narxlari o'zgarishlari kuzatuvlariga qamrab olingan barcha tovarlar va xizmatlar umumiy ta'sirining 24,2 % ini, xizmatlar ta'sirining ulushi 18,7 % ni tashkil etdi.

O'zR MIIT – 2018 bo'limlari orasida oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlarining oshishi hal qiluvchi inflyatsion omil bo'ldi va yig'ma INI o'sish sur'atiga ta'siri bo'yicha yetakchilik qildi. Yanvar-fevral davomida ushbu bo'limga kiruvchi tovarlar 1,9 % ga qimmatlashib, buning hisobiga oylik yig'ma INI 0,74 f.d. yuqoriladi.

Ushbu bo'limga kiruvchi asosiy tovarlar guruhi orasida joriy yilning yanvar-fevralda narxlar oshishi bo'yicha meva-sabzavot mahsulotlari an'anaviy tarzda yetakchilikka chiqdi. Shu tariqa, 2021-yilning dekabriga nisbatan mevalar va yong'oqlar narxlari 5,1 % ga, sabzavotlar, ildizmevalilar, plantaynlar va dukkaklilar 8,1 % ga oshdi. Meva-sabzavot mahsulotlarining o'tgan yilning dekabriga nisbatan yig'ma INIga jami ta'siri 0,59 f.d.ni tashkil etdi. Shuningdek, donli ekinlar va yorma mahsulotlari (narxlarning oshishi darajasi 1,4 %, ta'siri 0,11 f.d.), shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar (1,2 % va 0,03 f.d.) narxlarining o'zgarishlari ham salmoqli ta'sir ko'rsatdi. Boshqa guruhlarning jami ta'siri 0,04 f.d. ni tashkil etdi. Shu bilan birga, inflyatsiyani pasaytiruvchi omil sifatida go'sht mahsulotlari (o'rtacha 0,4 % ga, ta'siri -0,04 f.d.), sitrus mevalar (-3,9 %, -0,02 f.d.) hamda tuxum (-2,9 %, -0,03 f.d.) narxlarining arzonlashishi xizmat qildi.

Kiyimlar va poyafzal (narxlarning oshishi darajasi 1,7 %, ta'siri 0,19 f.d.) hamda sog'liqni saqlash sohasida (1,8 % va 0,11 f.d.) narxlarning o'zgarishlari ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Benzin (-6,5 %) va propan (-12,1 %) narxlarining pasayishi inflyatsiyani ushlab turuvchi omil sifatida xizmat qilib, yil boshidan inflyatsiya darajasini 0,11 f.d. past bo'lishiga imkon yaratdi.

3. Qurilish ishlari

Qurilish ishlari hajmi 2022-yilning yanvar-fevral oylarida **12825,0** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **102,8** %ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining 1746,0 mlrd. so'm yoki 13,6 % yirik korxonalar va tashkilotlar, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 8900,5 mlrd. so'm yoki 69,4 %, norasmiy sektor sub'ektlari tomonidan 2178,5 mlrd. so'm yoki 17,0 % bajarildi.

4. Chakana savdo tovar aylanmasi

2022-yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **37 070,2** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **13,3** % ga o'sdi.

Yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2021-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan **54,5** % ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining **22,7** % ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes subektlarining chakana tovar aylanmasi 2021-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan **4,2** % ga ko'paydi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **68,3** % ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **9,1** % ulush bilan **3 357,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

5. Tashqi savdo aylanmasi

2022-yilning yanvar-fevral oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **8 731,3** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilga nisbatan **4 010,4** mln. AQSh dollariga yoki **84,9** % ga ko'paydi. Eksport hajmi **4 096,5** mln. AQSh dollariga (o'tgan yilning mos davriga nisbatan **173,2** % ga o'sish) va import **4 634,9** mln. AQSh dollariga o'tgan yilning mos davriga nisbatan **43,9** % ga o'sdi).

Eksport tarkibida ham o'sish kuzatildi, shu jumladan: hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari) yog'lar va mumlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan - **3,8** b. (1,8 mln. dollargacha)ga, ichimliklar va tamaki **2,5** b. (4,1 mln. doll.)ga, turli xil tayyor buyumlar **30,9** % (34,2 mln doll), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar **25,9** b.(44,8 mln. doll.)ga hamda sanoat tovarlari **24,3** % (142,3 mln. doll.)ga ko'paydi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (shu jumladan ehtiyot qismlar va butlovchi qismlarga) - **34,1** % (1 580,0 mln. doll.), sanoat tovarlari **19,8** % (915,5 mln. doll.), kimyo mahsulotlari (va ulardan tayyorlangan mahsulotlar)- **13,0** % (601,9 mln. doll.) to'g'ri keladi.

6. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari

2022-yilning yanvar-fevral oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **47,3** trln. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **15,7 %** ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida moliyaviy xizmatlarning **34,8 %** ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri 7,5 punkt), savdo xizmatlari **10,3 %** ga (o'sishdagi ta'siri 2,7 punkt), transport xizmatlari **10,1 %** ga (o'sishdagi ta'siri 2,3 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **30,6 %** ga (o'sishdagi ta'siri 1,8 punkt), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **12,7 %** ga (o'sishdagi ta'siri 0,4 punkt) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning eng katta hajmi savdo xizmatlari (**12,1** trln.so'm, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati **110,3 %**), moliyaviy xizmatlar (**11,2** trln.so'm, **134,8 %**) va transport xizmatlari (**9,9** trln.so'm, **110,1 %**)ga to'g'ri keladi.

7. Korxonalar va tashkilotlar soni

2022-yil 1-mart holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) **537,4** mingtani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 470,7 mingta). O'tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining o'sishi 10,1 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 11,1 foiz) tashkil etdi. Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng yuqori o'sishi Samarqand (19,2 foiz), Qashqadaryo (13,6 foiz), Xorazm (12,1 foiz), Navoiy (11,0 foiz), Surxondaryo (11,0 foiz), Andijon (10,6 foiz), Farg'ona (9,8 foiz), Jizzax (9,1 foiz) va Toshkent (8,8 foiz) viloyatlarida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining eng yuqori o'sishi savdo (17,6 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (13,0 foiz), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (11,0 foiz), axborot va aloqa (9,3 foiz), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (9,2 foiz), sanoat (6,8 foiz), tashish va saqlash (5,9 foiz) hamda qurilish (5,5 foiz) faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

2022-yil yanvar-fevral oyida respublikada 15,9 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 15,2 mingtani tashkil etdi.

2022-yil 1-mart holatiga ko'ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 13 531 tani tashkil etdi. O'tgan yil bilan solishtirganda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining o'sishi 12,1 % ni yoki 1 462 tani tashkil etdi. Ulardan 6 067 tasi qo'shma korxonalar va 7 464 tasi xorijiy korxonalar tashkil etgan.